

**ALISHER NAVOIY VA RUMIY: TASAVVUFİY
QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI**

Abduxakimova Umida¹

¹ Samarqand davlat chet tillari

Payariq Xorijiy tillar fakulteti talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 02.05.2025

Revised: 03.05.2025

Accepted: 04.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Alisher Navoiy,
Jaloliddin Rumiy,
Navoiy lirikasida
tasavvuf, Rumiy
falsafasi, mushtaraklik
va farqlar.*

Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiyning hayoti va ijod davri hamda tasavvufiy qarashlarning qiyosiy tushunchalari haqida so'z boradi. Har ikkala adibning ijodidagi mushtarak va farqli jihatlar yoritilib, asarlarda tasavvufining aks etishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning falsafiy qarashlari o'z davri va jamiyatiga qanday ta'sir ko 'rsatgani muhokama qilinadi. Maqola matn tahlili va qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida yozilgan bo'lib, Navoiy va Rumiy merosining bugungi kunda ham dolzarbligini ko 'rsatadi.

KIRISH. Alisher Navoiy – o'zbek adabiyotining ulug' siymosi, Sharq madaniyati va tasavvuf falsafasining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, uning ijodi nafaqat babiyy mahorati, balki inson ma'naviy kamoloti va axloqiy yetukligi masalalarini chuqur yoritgani bilan ham ahamiyatlidir. Uning ijodida inson va ilohiy haqiqat,adolat va muhabbat, ilm va kamolot kabi mavzular markaziy o'rinn tutadi.

Bolalikdan iqtidorli, ma'naviy boy va teran fikrli Navoiy 10-12 yoshlaridan oq she'r yozishni boshlagan. Tarixchi Xondamirni yozishicha, yosh Navoiy iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning:

*Orazin yopqoch,
ko 'zumdun sochilur har lahza yosh,*

*Bo 'ylakim, paydo bo 'lur yulduz,
Nihon bo 'lg 'ach quyosh.*

matla'li g'azalini tinglab: "Agar tuyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalg'a alishtirardim...", - deya lutf etgan. Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 yo'nalishga bo'lib o'rganishimiz mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari. Uning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi, asosan, "Xazoyin ul-maoniy" to'plamida jamlangan. Asar 4qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga "G'aroyib us-sig'ar" (Bolalik g'aroyibotlari), ikkinchi qismiga "Navodir ush-shabob" (Yigitlik nodirotlari), uchinchi qismiga ("O'rta yosh badialari"), to'rtinchi qismiga esa ("Keksalik foydalar") nomlari berilgan. "Xazoyin ul-maoniy" insonning murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob histuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r va yigirmaga yaqin she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan tuzilgan. Ushbu to'plamga kirgan she'rlarni Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo'lib, ularning aksariyati shoirning tarjimayi holi bilan chambarchas bog'liq. U "Xazoyin ul-maoniy"ga qadar "B", "N" devonlarini tuzgan. 1465-yilda muxlislari tomonidan fanda "I" nomi bilan mashhur bo'lган devoniga tartib berilgan. "Xazoyin ul-maoniy" ana shu devondan o'rin olgan hamda "N" tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzga kelgan. Mir Alisher keksalik chog'larida barcha she'rlarini yig'ib, xronologik tartibda 4 ta devon tuzish g'oyasi bo'lgan. Biroq "Xazoyin ul-maoniy"ni tuzishda muharrirlik vazifasini bajargan Husayn Boyqaro bu g'oyani qo'llab-quvvatlamagan. Uning "G'aroyib us-sig'ar" devoni bolalik mashqlaridan, "Navodir ush-shabob" yigitlik she'rlaridangina iborat bo'lmay, bu boshlang'ich devonlarda shoirning keyingi davr she'riy mo'jizalaridan ham namunalar borki, Husayn Boyqaro shuni ma'qul ko'rgan. Shu sababli "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi 4 ta devon nomining mazmunini shartli ma'noda tushunish, bunda she'rlar ko'p holda aralash tarzda joylashtirilganligini nazardan qochirmaslik muhim. Alisher Navoiyning ishq bilan bog'liq tasvirlari rangba-rang va boy bo'lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko'p qirralarini – shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham ko'ramiz. Zotan, o'zbek she'riyatida inson dardi va hasratlarini, o 'z seviklisiga talpinishlarini Navoiydan o'tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Ishq talqinida buyuk shoir ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi ramziylikka ko'p o'rinn beradi. "Yor" – bu dunyo go'zaligina emas, uningcha, bu – butun borliqni yaratgan va hamma narsani harakatga

keltirib turgan Alloh hamdir. Shoir o‘zining tasavvufiy she’rlarida yorning qoshi, ko‘zi, zulfi, sochi (va h.k) deganda Allohnинг kuch-qudrati, mehri, oliy darajadagi go‘zalliklarini ko‘zda tutadi. Uning barcha lirk Janrlarga oid she’rlari yuksak mahorat bilan yozilgan bo‘lib, inson manfaatlariga, uning e’tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir she’ri bu janrlarning o‘lmas namunalaridir. Ushbu namunalar bilan Navoiy oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berishni, ularni og‘ir sinovlardan o‘tkazib, komil inson darajasiga yuksaltirishni niyat qilgan. Tasavvuf haqida so‘z borar ekan, shoir asarlarida, xususan, “Lison ut-tayr” dostonida, qushlar timsolida Haq yo‘liga kirgan va Allohn ko‘rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan kamolot egalarini tasvirlashga intilgan. Hudhud degan qush nomidan so‘zlangan yuzlarcha hikoyalilar irfoniy mazmunda bo‘lib, nihoyatda hayotiy va bir-biridan qiziqarli. Qushlarning rangba-rang timsollari orqali o‘zining tasavvuf ta’limoti bilan bog ‘liq g ‘oyalarini insonning ulug‘vorligiga ma’joziy uslub bilan taqqoslab, ta’sirli qilib, real ijtimoiy axloqiy hodisalar orqali bog‘lab tasvirlagan. Tasavvufning vahdat ul-vujud nazariyasi ham shu tarzda asarda o‘zining badiiy in’ikosini topgan. Bu bilan Navoiy tasavvuf g‘oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy ko‘rkam va jonli yetkazishda oliy darajada san’atkorlik ko‘rsatgan.

Shoirning tatabbu’, tavr va muxtara’ she’rlarida ishq-muhabbat mavzusi keng yoritilib, tasavvufiy-majoziy timsol va uslublarda ifoda etilgan. Foniying tasavvufiy ruhda yozilgan g‘azallarida ishq, may, soqiy, piri mayxona, din-u zuhd, qadah, dayri mug‘on, fano, baqo, rind, mayxona va vasl kabi so‘zlarni ko‘p qo‘llaydi va ular vositasida so‘fiyona, irfoniy qarashlarni ifoda etadi. Bundan tashqari, she’rlarda odam va olam, oshiq va ma’shuqlik, hayot va o‘lim, ezgulik va yovuzlik, dunyo va oxirat kabi mavzularga ham munosabat bildirib o‘tadi. Umuman, hayot lazzatlari, may va mutrib, yor va bahor go‘zalligi, ishq yo‘lidagi yaxshilik va yomonlik kabi an’anaviy mavzular Foniy she’rlarining javharini tashkil etadi.

Jaloliddin Rumiy – shoir va mutafakkir. Tasavvufdagи mavlaviya tariqatining asoschisi. Arab, fors va turkiy tillarida serqirra ijod qilgan. Rumiy ijodi yuksak badiiyati bilan emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta’sir kuchiga ega. Uning tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy o‘sish, o‘zgarishda ekani, eskinining yo‘qolib, yangining paydo bo‘lishi – “dunyoning ziddiyatlar birligidagi ziddiyatlar jangi”dan iboratligi to‘g‘risidagi qarashlari nemis faylasufi Gegelning e’tiroficha, uning dialektik metodni yaratishiga yordam bergen. Ilmiy doiralarda olimlar Rumiyni falsafiy olimlar, xususan, Kant, Gegel va shu kabi faylasuflar bilan qiyoslaydi. Ammo, Mavlono Rumiy hech kimga

o‘xshamaydi. U muazzam Sharq tafakkurining mo‘jizali bir haykalidirkim, unda tasavvuf taraqqiyoti ham, ilm-u hikmat va falsafa ham, she’riyat va ma’naviyat ham birlashib, oliv ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Rumiy o‘zidan keyingi Sharq she’riyati, fikriy va ma’naviy tarqqiyotiga ulkan ta’sir o‘tkazgan ijodkordir. Alisher Navoiy uni ilohiy ishq kuychisi, buyuklikning ko‘z ilg‘amas cho‘qqisi deb sharaflaydi.

Mavlononing ilmiy va adabiy merosi katta hajmni tashkil etadi. G‘azal, masnaviy va ruboilarni o‘z ichiga oladigan “Devoni kabir” (Ulug‘ devon”)da uch mingdan ortiq she’r bor. Falsafiy-so‘fiyona mushohadalar ruhiyat dialektikasini kashf etib, fikrlar juda teranlik bilan bayon etilgan. Rumiy ko‘plab ilmiy va falsafiy asarlar muallifi, yetuk adib va tasavvufning ilg‘or namoyondasidir.

Rumiy ijodi Mavlononing tuyganlarini tuymoqqa, anglaganlarini anglatmoqqa da’vat qiladi. Yetmish ikki millatga bir ko‘z bilan qaramoqliknii o‘rgatadi, quyoshni sevgan nurni ham sevishi kerakligi haqida ta’limot beradi o‘quvchiga. Muxtasar qilsak, qarshimizda bir olam, qaysiki, biz avval ko‘rgan, biroq e’tibor bermagan, anglashga urinmagan, nazarimizdan chetda qolgan olam – o‘zimizni anglamoqlikka o‘rgatadi uning asarlari.

Uning bиргина hikmatli so‘zi ham juda katta ma’noga ega, hatto, inson hayotining yashash tamoyili asosi qilib belgilansa bo‘ladigan darajada buyuk. Masalan, Rumiyning “Inson odobdan iboratdur” hikmatli so‘zi inson mohiyatining faqat jismoniy mavjudlik bilan emas, balki axloqiy yetuklik bilan o‘lchanishini ham anglatadi. Axloqsiz odam – insoniylikning haqiqiy mohiyatidan uzoqlashgan mavjudotdir. Shu bois, ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, ushbu fikr inson psixologiyasidan tortib, jamiyat rivojiga qadar turli jihatlarga asoslangan bo‘lib, Rumiyning insoniylik konsepsiyasini yuksak darajada yoritib beradi. Falsafiy tomondan, inson tabiatini ikki asosiy omilga tayangan holda shakllanadi: fitrat (tug‘ma hislatlar) va kasbiy fazilatlar (ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan odatlar). Shu nuqtayi nazardan qaraganda, odob insonning tug‘ma mohiyatiga singdirilgan bo‘lib, u inson kamoloti jarayonida takomillashadi. Rumiyning ushbu hikmatidan anglashiladiki, inson shaxsiyatining asosiy tamoyili uning moddiy mavjudligida emas, odob va axloqiy fazilatlarida namoyon bo‘ladi.

Usbu aforizm faqat shu ma’nolar bilan cheklanib qolmay, inson mohiyatining ontologik asoslariga ham ishora qiladi. Agar insonning mavjudligi faqat jismoniy tuzilishidan iborat bo‘lganida, unda axloq va odob tushunchalarining ahamiyati bo‘lmagan bo‘lar edi. Ammo insoniyat tarixi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan rivoji va madaniyat yuksalishihar dim axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli, insonning asl mohiyati uning ma’naviy kamoloti va odob darajasi bilan belgilanadi. Shu

bois, Mavlononing mazkur so‘zi insonning hayot mazmunini olib beruvchi chuqur falsafiy fikr bo‘lib, u insoniyat tamadduning har qanday bosqichida dolzarb bo‘lib qoladi.

Sharqda Rumiydan keyin o‘tgan barcha shoirlar Rumiyni o‘zlariga ustoz deb bilganlar. Chunki, u haqni yozgan, insonlarni doim to‘g‘ri yo‘lga chorlagan, eng muhim, hayotning mazmunini tushunishga, anglashga o‘z asarlari bilan katta yordam bergan. Faqatgina adabiy emas, ma’naviy, hayotiy, real va ilmiy meros qoldirgan Rumi biz uchun. Mavlono Sharqona tasavvuf falsafasini shunchalik chuqur va chiroyli ifodalaganki, asarlari tarjima qilinganda G‘arbda ham tushunarli va ta’sirli bo‘lib chiqadi. Hindistonlik-amerikalik yozuvchi, shifokor va ruhiy o‘qituvchi bo‘lgan Deepak Chopra G‘arb va Sharq adabiyotini uyg‘unlashtirib o‘rganar ekan, Rumi ijodiga ham katta qiziqish va hurmat bildirgan. Xususan, Deepak Chopra: “Rumi faqat shoir emas, u butun insoniyat uchun ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchidir” deb yozgan.⁶ Chopra ruhshunos sifatida Rumiyning hikmatlaridan foydalanar ekan, uning so‘zлari insonlardan nuqson qidirish emas, balki hamma o‘z-o‘zini isloh qilishligi kerakliligi haqidaligini alohida ta’kidlaydi. Inson ruhiyatidagi muammolar sabablari, ularni yechish uslublari va xotirjam yashash taktikalarini Mavlononing asarlari bilan hamohang tarzda ishlab chiqqan bu shifokor shu sababli ham Rumiyni ham yozuvchi, ham ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi deb ta’rif beradi.

Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumi tasavvufining asosiy g‘oyalari ba’zi hollarda farqli va ba’zi hollarda mushtarakdir. Rumiy asarlarida ilohiy muhabbat g‘oyalari markaziy o‘rinda turadi. U insonning haqiqiy yo‘lini topish uchun, ilohiy muhabbatni va ichki safarni o‘zida mujassam etadi. Uning tasavvufi g‘oyalari ichki dunyo va shaxsiy ruhiy tajribaga asoslangan bo‘lsa, Navoiy ko‘proq insoniyat va axloqni markazga oladi. U tasavvufni nafaqat ilohiy muhabbat bilan, balki adolat, halollik, vijdon va iymon bilan bog ‘laydi. Buning sababi, Navoiy ijod qilgan payt Temuriylar davriga to‘g‘ri kelganligi, uning davlat ishlariga aralashganligi va saroy a‘yonlarini hamda podshohni xalq uchun adolatli va tushunuvchan bo‘lishlikka undagan bo‘lishligi mumkin. U tasavvufni, eng avvalo, jamiyatni yaxshilashning vositasi sifatida qaragan. Uning g‘oyalari asosan tasavvufning shaxsiy yo‘lidan ko‘ra, ijtimoiy va axloqiy jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Rumi tasavvufiy tafakkurini ko‘pincha she’riy shaklda ifodalaydi ya’ni uning g‘oyalari noan’anaviy, ko‘pincha ramziy va tasavvufiy belgilarda ifodalangan. Rumiy uchun she’r nafaqat san’at, balki ma’naviy izlanishning vositasi hamdir. Chunki u she’riyat orqali ilohiy haqiqatlarni anglash, ruhiy poklanish va inson qalbidagi ichki ziddiyatlarni yengishning

⁶ Chopra, Deepak. *The Love Poems of Rumi*. New York: Harmony books, 1998.

samarali yo‘lini samarali yo‘lini izlaydi. Uning asarlarida ramziy obrazlar orqali inson va Yaratganning o‘zaro munosabati, mavjudot mohiyatiga oid falsafiy mulohazalar hamda ruhiy taraqqiyot bosqichlari chuqur tahlil etilgan. Ayniqsa, “Masnaviy ma’naviy” asari shunchaki she’riy to‘plam emas, sof tasavvufiy g‘oyalalar bilan yo‘g‘rilgan ma’rifiy risola bo‘lib, u orqali Rumiy ma’naviy kamolot sari yo‘l ko‘rsatadi. Masalan, “Bo ‘ri va cho ‘pon” hikoyati nafsiy qusurlar odamni halokatga yetaklashi, faqatgina chin tavba va haqiqatga bo‘lgan samimiy insonni najotga olib borishi tasvirlanadi. Bu hikoyat orqali Rumiy tasavvufdagi eng muhim tushuncha – *ma’rifatga yetishish* uchun qalbni pok tutish zarurligini uqtiradi.

Alisher Navoiy esa tasavvufiy g‘oyalarni asosan nasriy shaklda bayon etadi va ularni mantiqiy hamda axloqiy asosda chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa, uning “Xamsa” asarida tasavvufiy qarashlar falsafiy va axloqiy naqtayi nazardan keng yoritilib, insonning ma’naviy kamolot sari intilishi asosiy mavzu sifatida ilgari suriladi. Navoiy uchun tasavvuf – bu inson ruhiyatini tarbiyalash, uni haqiqat va kamolot sari yo‘naltirish vositasidir. Asarlarida ko‘plab ramziy obrazlar orqali ruhiy poklanish, tavoze, nafs bilan kurashish kabi tasavvufiy tamoyillar badiiy talqinda ifodalangan. Xususan, “Hayrat ul-abror” dostonida u komil inson idealini tasvirlar ekan, bu obraz orqali tasavvufdagi “insoni komil” tushunchasini ifodalashga intiladi. Masalan, do ‘stona hukmdor va donishmand o‘rtasidagi suhbatlar orqali ilm, sabr, adolat, tavozelik kabi fazilatlar yuksak qadrlanadi. Bu jihatlar Navoiy uchun tasavvufni shunchaki ruhiy tajriba emas, balki jamiyatni tarbiyalovchi kuch deb bilganini ko‘rsatadi.

Navoiy tasavvufni hayotiy tajriba va shaxsiy kuzatuvlari asosida yoritadi, bu esa uning asarlariga ichki izchillik va chinakam samimiyat baxsh etadi. Uning qarashlarida Rumiyga xos bo‘lgan ilohiy ishq va insonning Yaratganga intilishi g‘oyalari bilan mushtaraklik mavjud bo‘lib, bu ikki mutaffakirning tasavvufiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Shu tariqa, Navoiy ijodida tasavvuf diniy-falsafiy konsepsiya birgalikda ma’naviy yetuklik sari yo‘naltiruvchi amaliy hayotiy dastur sifatida namoyon bo‘ladi.

Rumiy uchun ruhiy yuksalish – bu ichki dunyoni anglash va haqiqiy sevgi orqali ilohiy nurni qabul qilishdir. Rumiy buni ko‘pincha ayni paytda o‘zligini yo‘qotib, butun koinotni o‘zida sezish deb ifodalaydi. Bugungi kunda Rumiy asarlari nafaqat diniy va ma’naviy masalalarda, balki ijtimoiy va psixologik nuqtayi nazardan ham katta ahamiyatga ega. Rumiyni o‘rganish orqali zamonaviy jamiyatda shaxsiy rivojlanish, ruhiy erkinlik va vijdonli jamiyat yaratish imkoniyatlarini ko‘rish mumkin. Uning tasavvufiy g‘oyalari zamonaviy insonning ichki muammolarini hal qilishga yordam beradi. Rumiy ruhiy

salomatlik va ichki muvozanatni saqlashning asosi sifatida o ‘zlikni yengish, ichki xohishlardan voz kechish va boshqalarga mehr qo ‘yishni tavsiya etadi. Bu g ‘oyalar diniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida ko ‘riladi.

Jaloliddin Rumiy tasavvufni nafaqat ma’naviy va ruhiy yo ‘l sifatida, balki insonning ichki olamini o ‘rganish va ulug‘lashning eng yuqori shakli sifatida ko‘rgan. Mavlono uchun tasavvuf – bu insonning haqiqiy maqsadini kashf etishi, ilohiy muhabbatni anglash va jamiyatni yaxshilash uchun yangi yo ‘lni topishdir. Uning tasavvufiy g ‘oyalari zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb bo ‘lib, insonni ichki erkinlikka, ma’naviy yuksalishga va tinchlikda yashashga chaqiradi.

Navoiy tasavvufni diniy shaklda ham, insoniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan falsafiy tizim sifatida ham tushunadi. Uning tasavvufiy qarashlari, ayniqsa, jamiyatni yaxshilash, axloqiy yuksalish va insonning ichki erkinligini ta’minlashga qaratilgan.

Bu ikki darg ‘aning tasavvuf yo ‘lidagi hissasi, ilmiy va adabiy merosi butun insoniyat uchun namuna bo ‘lishga arzirlidir. Ulardagi o ‘xshashlik va farqli jihatlarni talqin qilsak,bu ikki adibning adabiy merosi teng ravishda insonlarni yaxshilik qilishga,ezgulik yo`lida yurishga,go`zal ahloqni odamlarga singdirishga undaydi,Ularning asarlaridagi majoziy obrazlar ham odamiylik deb atalmish mukarram tuyg`uni tarannum etadi.

Foydalanimanadabiyotlar:

1. Navoiy, A. (1983). *Xamsa*. Toshkent: G ‘afur G ‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
2. Jaloliddin Rumiy. (2005). *Masnaviy Ma’naviy* (Muhammad Roziq tarjimasi). Toshkent: Movarounnahr nashriyoti.
3. Karimov, K. (2012). *Tasavvuf va o ‘zbek mumtoz adabiyoti*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Komilov, N. (2000). *Tasavvuf: qalb manzaralari*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Hayitmetov, A. (1974). *Alisher Navoiy va tasavvuf*. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Abdurahmon Jomiy. (1990). *Nafahat ul-uns* (tasavvufiy shaxslar haqida). Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.